

Date: 23rd December-2024

**O'QUVCHILARNING IRODAVIY HARAKATLARINI BOSHQARUV
OMILLARI.**

Xudayberdiyeva Sevara

International school of finance technology and science instituti Psixologiya va pedagogika kafedrasи o'qituvchisi
xudayberdiyevas@isft.uz

Oxunjonova Ximoyatxon, Tursunov Dilshod

International school of finance technology and science instituti
3-kurs 22PPF-03gurux talabasi
Fakultet: Pedagogika va psixologiya

Annotatsiya. Ushbu maqolada iroda va irodaviy sifatlar mohiyati, ilk yoshdagи o'spirinlarda irodaviy sifatlar shakllanganligining psixologik xususiyatlari mazmuni yoritilgan. Shuningdek, o'spirinlarda irodaviy sifatlarning shakllanganligi va uning o'z-o'zini boshqarishga ta'sirini o'rganishga doir aniqlovchi tajriba-sinov ishi natijalari tahlili keltirilgan

Kalit so'zlar: iroda, tashqi iroda, ichki iroda, iroda kuchi, jasorat, mustaqillik, irodasizlik.

Аннотация: В. данной статье раскрывается сущность воли и волевых качеств, содержание психологических особенностей формирования волевых качеств у подростков раннего возраста. Также представлен анализ результатов опытно-экспериментальной работы по изучению сформированности волевых качеств у подростков и ее влияния на самоконтроль.

Ключевые слова: воля, внешняя воля, внутренняя воля, сила воли, мужество, самостоятельность, безволие.

Abstract. This article reveals the essence of will and volitional qualities, the content of the psychological characteristics of the formation of volitional qualities in young adolescents. Also presented is an analysis of the results of experimental work on the study of the formation of volitional qualities in adolescents and its impact on selfcontrol.

Keywords: will, external will, internal will, willpower, courage, independence, lack of will.

Republikamizda ta'lrim maqsadiga ko'ra o'quvchilarning yoshiga mos ravishda quyidagi tayanch ma'naviy-axloqiy fazilat kompetensiya)lar – Vatanni sevish, ardoqlash va unga sadoqatli bo'lish, ishbilarmonlik, kuch va irodalilik, sog'lom fikrlash, g'amxo'rlik, yaxshilik, oqibatlik, burch va mas'uliyatlilik, tolerantlik, huquqiy ong, yangicha fikrlash, mehnat qilish, mehnatni qadrlash singari ijobjiy sifatlarni shakllantirish uzuksiz ma'naviy tarbiya jarayonining asosiy vazifalari sifatida belgilangan. Zero, ilk yoshdagи o'spirinlarda irodaviy sifatlarni rivojlantirish ularning o'quv-tarbiya jarayonida yuqori muvaffaqiyatlarga erishishini ta'minlaydi. Iroda - insonning o'z faoliyati va psixik jarayonlarini o'zi boshqara olishida namoyon bo'ladigan qobiliyati. Inson irodaviy

**PROBLEMS AND SOLUTIONS AT THE STAGE OF INNOVATIVE DEVELOPMENT OF
SCIENCE, EDUCATION AND TECHNOLOGY.**
International online conference.

Date: 23rd December-2024



harakatini amalga oshirar ekan, o‘ziga hukmron ehtiyoj va xohishlariga qarshi turadi: Iroda uchun “men xohlayman” degan kechinma emas, balki “kerak”, “bajarishim shart” degan kechinma xosdir.Inson faoliyatining barcha turlari va har qanday mehnat kishidan mustahkam irodani talab qiladi. Iroda mehnat faoliyati davomida shakllanadi va rivojlanib boradi. Irodaning ongdagi faoliyati harakat maqsadini belgilashda, maqsadga erishish vositalari va yo‘l-yo‘riqlarini oldindan aniqlab, ma’lum qarorga kelishda hamda bu qarorni ijro etishda namoyon bo‘ladi. Inson irodasining qay darajada rivojlanganligi maqsadni qanday ro‘yobga chiqarishida ko‘rinadi. Irodaviy harakat jarayonlarida kishi ichki va tashqi to‘sqliarga duch keladi. Ichki to‘sqliar kishining o‘ziga, uning ichki mayllariga xos holat. Kishining ichki mayllarini yenga olishi, o‘zini boshqarish va o‘z ustidan hukmronlik qila bilish layoqati ichki iroda, deb ataladi. Tashqi to‘sqliar tevarak-atrofdagi voqelikda uchraydi. Kishining ana shunday tashqi to‘sqliarni yenga olish layoqati tashqi iroda, deb ataladi. Irodaviy faoliyatda tashqi to‘sqliarni yengish (tashqi iroda) ichki to‘sqliar (ichki iroda) ni yengish bilan uzviy bog‘liq.Irodaningning muhim sifatlari: o‘zini tuta bilish, dadillik, qat‘iylik, chidam va toqat, prinsipiallik, mustaqillik va boshqalar. Iroda kuchi shu sifatlarning qay darajada namoyon bo‘lishiga qarab belgilanadi. Kishi yuksak g‘oyalarga asoslangan ongli qat‘iyat va sabot bilan o‘z harakati yo‘lidagi to‘sqliarni yengar ekan, u kuchli iroda egasi hisoblanadi. Iroda kishining harakteri bilan uzviy bog‘liq, uning shakllanishida muhim rol o‘ynaydi. Shaxsda irodaviy sifatlarning ya’ni, iroda kuchi, mustaqilligi, qat‘iyatliligi kabi ayrim sifatlari turlicha namoyon bo‘ladi. Shunga ko‘ra har bir kishida irodaning ayrim sifatlari umr bo‘yi mustahkamlanib, oqibatda shu odamning xususiy sifatlari (ya’ni doimiy xislatlari) bo‘lib qolishi mumkin. Shuning uchunham shaxsning bunday sifatlari uning o‘ziga xos xususiyatlari deb ataladi. Har bir kishidagi mazkur sifatlarning turlicha namoyon bo‘lishi shu kishi xarakterining xislati bo‘lavermaydi. Chunki, ayrim hollarda hatto, tasodify ravishda kishi kuchli iroda ko‘rsatishi mumkin, ayrim hollarda mazkur kishining irodasi umuman kuchli irodalilik shu kishi xarakterining xislati ekanligini ifodalamaydi. Bunday hollarda kishining irodasi kuchli deb aytish uchun uning iroda kuchi bir marta emas balki, bir necha marotaba namoyon bo‘lishini bilmoq kerak.Inson irodasi ma’lum fazilatlar bilan tavsiflanadi. Avvalo, irodani maqsadga erishish yo‘lida yuzaga keladigan muhim qiyinchiliklarni yengishning umumlashtirilgan qobiliyati sifatida ajratish odatiy holdir. Maqsadingizga erishish yo‘lidagi to‘sinq qanchalik jiddiy bo‘lsa, irodangiz shunchalik kuchli bo‘ladi. Aynan iroda kuchi bilan yengib o‘tiladigan to‘sqliar irodaning namoyon bo‘lishining ob‘ektiv ko‘rsatkichidir.Kishining xarakterini ta’riflaganimizda, falon kishi dadillik qiladi, rost gapiradi, demasdan balki, bu odam dadil, rostgo‘y, to‘g‘riso‘z deb ataymiz. Buning ma’nosи shuki, dadillik va rostgo‘ylik, to‘g‘riso‘zlik shu odamning xususiyatlari yoki xarakter xislatlaridir, tegishli sharoitda bu kishi dadillik, rostgo‘ylik, to‘g‘riso‘zlik xislatariga ega ekanligini namoyon qildi deb aytta olamiz. Kishi xarakteri xislatlarini bilib olgach, uning biror ish-harakatda qanday yo‘l tutishini ancha aniq bilib, oldindan aytib bera olamiz. Iroda ma’lum kuch bilan yuzaga chiqadi, ba’zi hollarda kishining irodasi kuchli sur’atda namoyon bo‘lsa, boshqa hollarda kuchsiz namoyon bo‘ladi. Shuning uchun

Date: 23rd December-2024



ham iroda kuchi irodaning muhim sifatidir deyiladi. Iroda kuchining turli darajasi irodaviy jarayonning hamma bosqichlarida ko‘rinadi. Iroda kuchi ravshan va aniq maqsadni belgilashda shuningdek, mazkur maqsadga yetishishga yordam beradigan yo‘l, vosita va usullarni ochiq tasavvur qilishda namoyon bo‘ladi. Bu ochiq ravshanlik darajasi esa kishining turmush tajribasiga, bilimiga va umumiyligi saviyasig bog‘liq. Aniq maqsad qo‘yishda inson tafakkuri va ayniqsa real g‘oyalarning taraqqiy etishi xususiyatlari katta rol o‘ynaydi. Iroda kuchi tezlik bilan qarorga kelsa va qarorni mustahkamlashda sabotlilik ko‘rsatsa, unda yuksak g‘oyaviy tamoyillarga asoslangan oqilona qat’iyatlilik va sabotlilik kuchi iroda beligilari sifatida namoyon bo‘ladi. Qat’iyatsizlik, ikkilanish, qabul qilingan qarorning bajarilishiga shubha bilan qarash va sabotsizlik kuchsiz iroda belgilaridandir. Iroda kuchi jasorat deb ataladigan dadillikda ayniqsa yaqqol ifodalanadi. Jasorat kishining shunday holatiki, bunda kishi tez qarorga keladi va uni bajarishga ahd qiladi. Hatto salomatligini va ayotini xavf ostida qoldirishi mumkinligi xayoliga ham kelmaydi. Jasorat kishining boshqa kishilarga emas, balki o‘ziga bergan mas’uliyatlilagini anglatadi. Kishi axloqiy burchning talabiga ko‘ra, buyuk maqsadga erishish uchun bir zumda hayot bilan o‘limdan birini tanlab olish bunday jasorat iroda kuchi ekanligin ko‘rsatadi. Kishi irodasining kuchi va qat’iyati xarakterining irodaga bog‘liq bo‘lgan qaysi xislatlarida ifodalangan bo‘lsa, o‘sha xislatlar eng yorqin xislatlardan hisoblanadi. Bu xislatlar har bir kishining xarakterida bir qadar namoyon bo‘ladi. Ammo hamma kishilarni va har qanday odamning irodasi kuchli xarakteri kuchli deb bo‘lmayi, balki shu sifatlari bilan boshqa kishilardan aralib turgan odamlargina iroda kuchli, xarakteri qat’iy deb ataladi. Iroda kuchi qabul qilingan qarorni o‘z vaqtida bajarishda ko‘rinadi. Shuninguchun qarorni bajarmaslik yoki uning bajarish muddatini doimo paysalga solish boshlangan ishni oxiriga yetkaza olmaslik irodaning kuchsizligi alomatidir. Lekin qabul qilingan qarorni bajargan har qanday qilingan ish-harakat irodaning kuchli ekanlididan darak beravermaydi. Iroda kuchi asosan irodaviy harakatlar yordami bilan yengillashganiga va shu yo‘l bilan qanday natijalarga erishishigagina qarab aniqlanadi. Irodaviy zo‘r berish vositasida bartaraf qilinadigan qarshilik va qiyinchiliklar darajasi va xarakteri iroda kuchining ob’ektiv ko‘rsatkichi bo‘lib xizmat qiladi. Iroda kuchi irodaning muhim sifatidir. Iroda kuchining turli darajasi irodaviy jarayonning hamma bosqichlarida ko‘rinadi. Iroda kuchi avvalo ehtiyojlarni his qilishda va intilishga urinishda ko‘rinadi. O‘spirinlik yoshi davrida irodaviy sifatlar negizida iroda kuchining ta’sirini qay darajada muhimligini aniqlash yotadi. Shuning uchun o‘spirinlarda iroda kuchining namoyon bo‘lishi ularda irodaning salbiy va ijobjiy sifatlarini tarkib topishiga xizmat qiladi. Shuningdek, bunday holatning namoyon bo‘lishi ulardagi iroda kuchi va uning yo‘nalganlik darajasi bilan ham uzviy bog‘liq bo‘lishi mumkin. Ilk yoshdagи o‘spirinlarda irodaviy sifatlarning shakllanganligi va uning o‘zo‘zini boshqarishga ta’sirini o‘rganish maqsadida Surxondaryo viloyati Termiz shahrida joylashgan 10- va 15-umumiy o‘rta ta’lim maktabi hamda Sho‘rchi tumanidagi 9-umumiy o‘rta ta’lim maktablarining yuqori sinf o‘quvchilari bilan 2022-2023 o‘quv yili davomida aniqlovchi tajriba-sinov ishlari olib borildi. O‘quvchilarda irodaviy sifatlarning shakllanganligi va uning o‘zo‘zini boshqarishga ta’sir darajasini o‘rganish aniqlovchi

Date: 23rd December-2024

tajribasinov ishlarining asosiy maqsadi sifatida belgilandi. Irodaviy tartibga solish natijasida irodaviy harakat vujudga keladi. Elementar ixtiyoriy harakat, harakatni amalga oshirish haqidagi fikr bilan bir vaqtida, odamning boshida uni amalga oshirishga xalaqit beradigan boshqa fikr paydo bolmaganda paydo boladi. Bunday harakatni, masalan, ideomotor harakat deb hisoblash mumkin bo‘lib, harakat haqidagi fikrning o‘zi harakatni keltirib chiqarish qobiliyatiga ega boladi[1]. Eng murakkab ixtiyoriy harakat ichki va tashqi qarshilikni yengib, qaror ongli ravishda qabul qilinadi va keyin amalga oshiriladi. Murakkab ixtiyoriy harakatlarga, masalan, yomon odatlardan voz kechish (chekish, alkogolizm) va yomon kocha guruhlarini tark etish kabilarni kiritish mumkin. Murakkab ixtiyoriy harakat bir zumda haqiqiy vaqt rejimida amalga oshirilmaydi, ba’zan uni amalga oshirish uchun maksimal iroda kuchini qollashni talab qiladi. Murakkab irodaviy harakatlar “irodali” shaxsning eng yuqori korsatkichidir. “Kuchli irodali” odamning “odatli odam”dan yana bir farqi birinchisida rivojlangan irodaviy sifatlarning mavjudligidir. Irodaviy sifatlar uch toifaga bolinadi: birlamchi irodaviy sifatlar (iroda, matonat, chidamlilik); ikkilamchi yoki hosilaviy, irodaviy fazilatlar (qat’iylik, jasorat, o‘zini tutabilish, ishonch); uchinchi darajali irodaviy fazilatlar (mas’uliyat, intizom, majburiyat, printsiplarga rioya qilish, samaradorlik, tashabbuskorlik). Irodaviy sifatlar dinamik kategoriyadir, ya’ni. hayot davomida o‘zgarishga, rivojlanishga qodir. Ixtiyoriy fazilatlar ko‘pincha vaziyatlarni o‘zlashtirish va ularni yengish uchun «Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot» nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya emas, balki o‘zini engishga qaratilgan. Bu, ayniqsa, impulsiv tipdagi, muvo‘zanatsiz va hissiy qo‘zg’aluvchan odamlar uchun tog’ri keladi, ular tabiiy yoki xarakterli ma’lumotlarga zid harakat qilishlari kerak.

Xulosa o‘rnida aytishimiz mumkinki, iroda bu insonning hayotiy qiyinchiliklarni yengib o’tishi, maqsadga erishish qobiliyatidir. Xususan, u xarakter, maqsadlilik, qat’iyatlilik, matonatlilik, jasoratlilik kabi fazilatlarda namoyon bo’ladi. Ushbu xarakter xususiyatlari ijtimoiy foydali yoki jamiyatga zid maqsadlarga erishishga yordam berishi mumkin. Shu sababli ham o‘quvchilarda irodaviy sifatlarni rivojlantirish ta’lim-tarbiya jarayonining muhim funksiyalaridan biri sifatida belgilanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Uzluksiz ma’naviy tarbiya Konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g’risida” VM1059 son Qarori. - T.: - 2019 yil 31 dekabr.
2. Абдурахимов, К. А. (2015). Психологические особенности интеллектуальной деятельности. Проблемы современного образования, (3), 41-47.
3. Abdulkhalilovich, A. K. (2021). Family as a Subject of Psychocorrective Influence. Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 656-668.
4. Abduraximov, Q. A. (2015). Psychological peculiarity of intellectual activity. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 3(2), 54-60.

**PROBLEMS AND SOLUTIONS AT THE STAGE OF INNOVATIVE DEVELOPMENT OF
SCIENCE, EDUCATION AND TECHNOLOGY.
International online conference.**

Date: 23rd December-2024

5. Bekmirov T.R. Shaxsning emotsiyal irodaviy holatlari. O'quv uslubiy qo'llanma. – Toshkent: 2022. – 68 b.
6. Erkaboeva, N. S., & Bakhromovna, M. M. (2022). A MODERN APPROACH TO THE FORMATION OF PROFESSIONAL COMPETENCE IN FUTURE DEFECTOLOGISTS. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(12), 1723-1725.
7. 1. Erkaboyeva, N. Sh. "FEATURES OF MODERN UZBEK FAMILIES." Ученый XXI века 4-1 (2016): 36-39.

